

MAMLAKATIMIZDA TIBBIY SUG'URTANI RIVOJLANISH JARAYONLARI

Ravshanov Azamat Azimjonovich¹

¹ O'zbekiston Respublikasi Bank-moliya akademiyasi magistranti

Nomozova Qumri Isoyevna¹

¹ O'zbekiston Respublikasi Bank-moliya akademiyasi professori v.b.

MAQOLA MALUMOTI

ANNOTATSIYA:

MAQOLA TARIXI:

Received: 11.06.2025

Revised: 12.06.2025

Accepted: 13.06.2025

KALIT SO'ZLAR:

*sug'urta, tibbiy
 sug'urta, ixtiyoriy
 sug'urta, majburiy
 sug'urta, polis, hayot
 sug'urtasi, tibbiy
 shartnomasi.*

Mazkur maqolada O'zbekiston Respublikasi qonunchiligidagi "tibbiy sug'urta shartnomasi" tushunchasining mavjud emasligi, bu boradagi huquqiy bo'shliqlar va amaliyotdagi muammolar tahlil qilinadi. Muallif tibbiy sug'urtaning hayot va sog'liqni sug'urtalashdan farqli ravishda, o'ziga xos xususiyatlarga ega sug'urta turi ekanini asoslaydi. Qonunchilikda bu tushuncha mustahkamlanmagan bo'lsa-da, ijtimoiy ehtiyojlar va sog'liqni saqlash tizimidagi islohotlar ushbu sug'urta turini joriy etish zaruriyatini yuzaga keltirmoqda.

KIRISH. Milliy qonunchiligimizda "tibbiy sug'urta shartnomasi" tushunchasi mavjud emas. Hatto FKda, bu shartnomalar sug'urta shartnomasining turi sifatida ham o'z aksini topmagan. Bu shartnomalar fuqarolarning sog'lig'ini saqlash munosabatlarida qo'llaniladigan sug'urta shartnomasi turidir. Lekin mazkur shartnomani aslo hayot va sog'liqni sug'urtalash shartnomasi bilan almashtirish mumkin emas. Tibbiy sug'urta shartnomasi o'z xususiyatlari, qo'llanilish sohasi va funksiyalari bilan hayot va sog'liqni sug'urtalash shartnomasidan farq qiladi. Tibbiy sug'urta mamlakatimiz uchun noan'anaviy bo'lgan sug'urta xizmatlaridan biridir. Hanuzgacha amaldagi qonunchilikda tibbiy sug'urta tushunchasi, qo'llanish sohasi haqida izoh va tushunchalar nazarda tutilmagan. O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligining 2002 yil 8 fevraldagi 18sonli buyrug'i bilan tasdiqlangan "Ixtiyoriy tibbiy sug'urtani amalga oshirish bo'yicha metodik ko'rsatma" mavjud. Lekin u meyoriy hujjat

tusiga ega emas. Mazkur munosabatning huquqiy asosi va ixtisoslashgan yo‘nalishi aniq bo‘lmanligi sababli hanuzgacha mazkur sug‘urta turi respublikamizda sust rivojlanmoqda.

Ilmiy adabiyotlarda ham “tibbiy sug‘urta” atamasi muomalaga endilikda kirib kelmoqda. Shu sababli ham milliy fuqarolik huquqi darsliklarida mazkur tushuncha bilan bog‘liq aniq qoidalar va nazariy tushunchalar mavjud emas (Masalan, “Fuqarolik huquqi” darsligida tibbiy sug‘urtada pulning evaziga sug‘urta qildiruvchiga tibbiy muolaja ko‘rsatiladi. Sug‘urta tovonining miqdori va tartibi sug‘urta qildiruvchining arizasiga muvofiq, shuningdek shartnoma shartlariga asosan amalga oshiriladi”, tarzidagi jumla uchraydi. // Fuqarolik huquqi. Ikkinci qism. –Toshkent, Ilm-ziyo, 2008. – 543 b.). Lekin o‘tkazilgan ilmiy tadqiqotlarda mazkur masala e’tibordan chetda qolmagan. Masalan, M.Aminjonovaning ta’kidlashicha, mamlakatimizda, sug‘urta bozorini shakllantirish hamda kengaytirish yo‘lida amalga oshirilishi lozim bo‘lgan dolzarb vazifalar qatorida, eng avvalo, sug‘urta xizmati shakllarini keskin kuchaytirish va biz uchun noan’anaviy bo‘lgan (tibbiy sug‘urta, ishsizlik sug‘urtasi, pensiya sug‘urtasi va x.k.) sug‘urta xizmatlarini keng joriy etishga alohida e’tibor qaratish zarur (Aminjonova M.A. Bozor iqtisodiyoti sharoitida sug‘urta xizmati ko‘rsatishning fuqarolik-huquqiy muammolari. –Toshkent, 2006. –B. 15.). Ayrim mualliflar O‘zbekiston Respublikasi sug‘urta bozorida ko‘rsatilayotgan sug‘urta xizmatlarining ayrim turlarini sanab o‘tish jarayonida tibbiy sug‘urtani ham tilga olishadi (Ashurova N., Baxriddinov A. Sug‘urta shartnomasi. –Toshkent, TDYUI, 2010. –B. 230.).

Xorijiy mamlakatlarda chop etilgan ilmiy ishlanmalarni tahlil etish jarayonida ham “tibbiy sug‘urta” tushunchasi bo‘yicha yagona yondashuv mavjud emasligiga guvoh bo‘lamiz. Mamlakatimizdan farqli o‘laroq, xorijda aholini ijtimoiy himoyalash va ular sog‘lig‘ini saqlashda tibbiy sug‘urtaning o‘rni katta. Shu sabab ham ayrim mualliflar o‘zini o‘zi tibbiy sug‘urta qilish inson salomatligini ta’minalashga xizmat qilishini ta’kidlaydilar (⁴Sviderskiy A.V. Administrativno-pravoviye problemi upravleniya obyazatelnim meditsinskim straxovaniyem v Rossiyskoy Federatsii. Diss/kand. yurid. nauk. –Tyumen: 2001, -199 s.).

Bundan tashqari, mualliflar tomonidan tibbiy sug‘urta tushunchasini yoritishda uning kasallik bilan bog‘liq bo‘lgan turli xarajatlar, tibbiy xizmat ko‘rsatish obekti bo‘lgan sug‘urtaning bir turi (Ayushiyev A.D., Rusakova O.I. Meditsinskoye straxovaniye: Ucheb. posobiye. – Irkutsk: IGEA, 1997. – S. 40), sug‘urta faoliyatining alohida tashkiliy-huquqiy shakli (Shaxov V.V. Vvedeniye v straxovaniye: Ucheb. Posobiye. 2-ye izd., pererab. i dop. – M.: Finansi i statistika, 1999. – S. 24), har qanday ko‘rinishdagi sog‘liqni yo‘qotish jarayonida aholini ijtimoiy himoya qilish shakli va vositasi (Finansi/V.M. Rodionova, Y.Y. Vavilov, L.M. Goncharenko i dr.; pod red. V.M. Rodionovoy. – M.: Finansi i statistika,

1993. – S. 187.) sifatidagi talqinlari ham mayjud.

Tibbiy sug‘urta bilan bog‘liq mazkur tushunchalarning mohiyatiga e’tibor beradigan bo‘lsak, ular asosan tibbiy sug‘urtaning iqtisodiy va sotsial nuqtai nazardan yondashuv jarayonida shakllanganligiga guvoh bo‘lamiz. Tibbiy sug‘urta davlatning aholi sog‘lig‘ini saqlashdagi siyosatlaridan bir ko‘rinishidir. Bu orqali fuqarolarga vaqt kelganda “bepul” sug‘urta puli evaziga davolanish imkoniyati beriladi va shu orqali aholining ayrim qatlamlari ijtimoiy himoyalanadi (Sotsialnaya meditsina i organizatsiya zdravooxraneniya// rukovodstvo dlya studentov: v 2 tomax. –M.: SPb, 1998. –S. 237-238.). Bu borada shuni qo‘sishimcha qilish kerakki, aholi sog‘lig‘ini saqlashda 100 foiz tibbiy sug‘urta mablag‘lari jalg qilinmaydi. Ayrim hollarda davlat byudjeti mablag‘lari, ayrim hollarda xususiy shaxslarning o‘z mablag‘lari tibbiy xizmat uchun haq to‘lashga yo‘naltirilishi mumkin. Masalan, harbiylar sog‘lig‘ini saqlash va ularni davolash xarajatlari ko‘pincha davlat byudjeti hisobidan amalga oshiriladi. Nazarimizda, bu hollarda nafaqat byudjet mablag‘laridan tashqari sug‘urta mablag‘larini qo‘llash, balki sug‘urta tashkilotlari va tibbiy muassasalar bilan hamkorlik aholi salomatligini saqlashda ish unumdarligining oshishiga va iqtisodiy manfaatdorlikning reallashuviga sabab bo‘ladi.

Haqiqatan ham tibbiy sug‘urta sog‘liqni saqlashdagi aholi ehtiyojlarining ijtimoiy himoya shakli sanaladi. Tibbiy sug‘urta bir necha sug‘urta turlaridan iborat bo‘lib, u dasturiga kiritilgan tibbiy xizmatlar uchun tibbiy muassasaga murojaat etgan sug‘urtalangan shaxs davolanish va o‘z sog‘lig‘ini tiklash uchun qo‘sishimcha sarf-xarajatlarni qisman yoki to‘liq qoplash darajasida sug‘urta to‘lovlarini amalga oshirish kabi sug‘urtalovchi majburiyatlaridan iborat munosabatdir. Mazkur shartnomaviy munosabatlarda bevosita va bilvosita sug‘urta tashkilotlari, sug‘urtalanuvchi va tibbiy muassasa ishtirok etadi. Mazkur uch subekt o‘rtasidagi huquqiy aloqa tibbiy sug‘urta shartnomaviy munosabatlarining vujudga kelish asosi sifatida baholanadi.

Huquqiy munosabatda sug‘urtaning ushbu turi qonun hujjaligiga mos holda huquqiy, iqtisodiy va tashkiliy asoslarda fuqarolarning tibbiy ehtiyojlarini belgilashda muhim ahamiyatga ega bo‘ladi. Qonun fuqarolarni tibbiy yordamga bo‘lgan konstitusiyaviy huquqlarini ta’minlaydi. Tibbiy sug‘urtaning maqsadi shundan iboratki, fuqarolarga sug‘urta hodisasi sodir bo‘lganda to‘plangan mablag‘lar hisobidan tibbiy yordamni olishi yoki profilaktik chora-tadbirlarni moliyalashtirishni kafolatlash bilan bog‘liqdir. Fuqarolik-huquqiy munosabat subekti hisoblangan har qanday fuqaro (fuqaroligidan qat’iy nazar) tibbiy sug‘urta munosabati ishtirokchisi bo‘lishi mumkin.

Mamlakatimizdan farqli o‘laroq, xorijda aholini ijtimoiy himoyalash va ular sog‘lig‘ini

saqlashda tibbiy sug‘urtaning o‘rni katta. Shu sabab ham ayrim mualliflar o‘zini o‘zi tibbiy sug‘urta qilish inson salomatligini ta’minlashga xizmat qilishini, inson o‘z sog‘lig‘i haqida qayg‘ursagina salomatligini saqlash usuli sifatida shartnomaga tuzishga qaror qilishini, tibbiy sug‘urta shartnomasi o‘z holicha inson salomatligini saqlash usuli ekanligini ta’kidlashadi (Sviderskiy A.V. Adminstrativno-pravoviye problemi upravleniya obyazatelnim meditsinskim straxovaniyem v Rossiyskoy Federatsii. Diss... kand. yurid. nauk. –Tyumen: 2001. – 199 s.). Yuridik ensiklopediyalarda ko‘rsatilishicha, tibbiy sug‘urta shartnomasi bu sug‘urta qildiruvchi va sug‘urtalovchi tibbiy tashkilot o‘rtasidagi kelishuv bo‘lib, unga muvofiq, sug‘urtalovchi sug‘urtalangan shaxslarga majburiy va ixtiyoriy tibbiy sug‘urta dasturlari bo‘yicha tibbiy yordamni yoki boshqa xizmatlarni ma’lum hajm va sifatda tashkillashtirish va moliyalashtirish majburiyatini oladi.

Ko‘pgina olimlar tibbiy sug‘urta shartnomasi umumiy sug‘urta shartnomalaridan farq qilishini, uning asosiy maqsadi faqat tibbiy ehtiyojlarni qondirishga qaratilganligi, sug‘urta munosabatlardan kelib tushgan mablag‘lar sug‘urta hodisasi yuz berganda sug‘urtalanuvchi emas, tibbiy tashkilotga to‘lanishi bilan farqlanishini ta’kidlab va o‘z-o‘zidan aksariyat hollarda tibbiy sug‘urta shartnomasiga ta’rif berishdan tiyiladilar.

Ayrim mualliflarning fikricha, sug‘urta munosabatlari subektlari o‘rtasidagi tibbiy sug‘urtani fuqarolik-huquqiy tartibga solish asosi shartnomada hisoblanadi, unda sug‘urta munosabatlari ishtirokchilarining huquq va majburiyatları, mazkur munosabat uchun zarur bo‘lgan holatlar, javobgarlik kabi masalalar o‘z ifodasini topadi. Bularning barchasi fuqarolarning huquqiy himoyasi va qonuniy manfaatlarini ifodalash imkonini beradi.

Demak, yuqoridaqilardan ko‘rinib turibdiki, tibbiy sug‘urta shartnomasi tushunchasi bo‘yicha olimlar o‘rtasida ham aniq bir yondashuv mavjud emas. Bu fuqarolik qonunchiligidagi mazkur shartnomada tushunchasi va u bilan bog‘liq normalarning mavjud emasligi bilan belgilanadi.

Tibbiy sug‘urta shartnomasining tushunchasi ishlab chiqilishi uchun uning mohiyatini ham aniqlab olish zarur. Tibbiy sug‘urtaning mohiyati, eng avvalo, aholi sog‘lig‘ini saqlash borasidagi davlat siyosati bilan chambarchas bog‘liqidir. Tibbiyotda o‘tkazilayotgan islohotlar natijasida aholiga sog‘liqni saqlash sohasida ko‘rsatiladigan xizmatlar samaradorligini oshirish choratadbirlari amalga oshirildi.

Mamlakatimizda yangi yilni jamiyatimiz hayotining muayyan muhim jabhalariga bag‘ishlash, o‘sha sohadagi ijtimoiy va iqtisodiy muammolarga keng jamoatchilik e’tiborini jalb qilish, muammolarni belgilash va ularning hal etilishiga barcha kuch hamda imkoniyatlarni keng jalb qilish yaxshi an'anaga aylanib qoldi. 1997 yildan boshlab yangi,

kirib kelayotgan yil nomlanishi, shu sohalardagi ishlar kuchaytirilishiga, ijtimoiy muammolarni hal qilish uchun katta davlat va jamiyat mablag‘lari jalb etilishiga imkon berdi. E’tibor beradigan bo‘lsak, mazkur yillarning aksariyati sog‘liqni saqlash bilan bevosita bog‘liqdir. Masalan, “Sihatsalomatlik yili”, “Homiyalar va shifokorlar yili” kabi. “Ijtimoiy himoya yili” Davlat dasturida ijtimoiy himoyaga sarflanadigan nodavlat homiylik mablag‘lari 483 mlrd. so‘m bo‘lgani holda, uning 270 mlrd. so‘mdan ko‘prog‘i nodavlat, xayriya mablag‘larini tashkil etdiki, bu umumiy sarflangan mablag‘larning 70 foizga yaqinini tashkil qiladi. Davlat tomonidan o‘tkazilayotgan barcha islohotlar, qabul qilingan davlat dasturlari mazmunidan davlatning aholi sog‘lig‘ini saqlash, tibbiy xizmat sifatini oshirish, kam ta’minlangan aholi qatlamlarini muhofaza qilishga qaratilganligini anglab olish qiyin emas. Demakki, bu sohadagi amalga oshirilayotgan ishlarni yanada rivojlantirish, aholi sog‘lig‘ini saqlashni yangi bosqichga olib chiqish, sohaga nodavlat tashkilotlarini, jumladan, sug‘urta tashkilotlari mablag‘larini jalb etish maqsadga muvofiqdir. Bu borada esa tibbiy sug‘urta eng qulay vosita hisoblanadi.

D.Bland sug‘urtaning tabiatи haqida fikr yuritar ekan, sug‘urtalovchi moddiy ahvolni himoya qiladi, uning egasiga zararlarni qoplash uchun resurslar beradi yo ruhi va tanasi yoki sog‘liqni tiklash yoxud uni nogiron sifatida qulay sharoitda saqlash uchun muayyan xarajatlarni taqozo etuvchi shaxsni qo‘llab-quvvatlaydi, degan fikrni bildiradi.

Boshqa mualliflarning ta’kidlashlaricha esa, sug‘urta munosabatiga kirishib, nafaqat sug‘urta hodisasi natijasida ko‘rishi mumkin bo‘lgan talofat va zararlarni bartaraf etishga yordam beruvchi sug‘urta to‘lovini olish va sug‘urta hodisasi yuz bergen taqdirda, sug‘urta to‘lovi amalga oshirilishini yuridik jihatdan kafolatlovchi sug‘urtalovchining majburiyati uchun, balki himoyalanganlik hissiga ega bo‘lish uchun ham haq to‘laydi va bu unga ruhiy xotirjamlik baxsh etadi, unda o‘z kelajagiga bo‘lgan ishonchni mustahkamlaydi.

Ushbu fikrlarga tayanib, tibbiy sug‘urtaning mohiyatini qisqacha tibbiy muassasa xizmatiga muhtoj fuqarolarni ixtiyoriy yoki majburiy tibbiy sug‘urta shartnomasiga muvofiq, sug‘urta tashkilotining to‘liq yoki qisman moliyalashtirishi hisobiga tibbiy xizmatdan foydalanish imkoniyatining berilishi bilan bog‘lash mumkin.